

KOREYS BADIY ADABIYOTIDA PERSONIFIKATSIYANING IFODALANISHI



<https://doi.org/10.5281/zenodo.6653703>

Sharofat Eshimova Kenjaboyevna

Samarqand davlat chet tillar instituti

Uzoq sharq tillari katta o‘qituvchisi

sharofate1986@gmail.com

ANNOTATSIYA

Ushbu maqolada tropi derivatsiyaning bir bo‘limi hisoblanmish metafora haqida so‘z yuritiladi. Metaforaning bir turi bo‘lmish personifikatsiyaning badiiy adabiyotlarda ifodalanishi, obrazlarning berilishi, ya‘ni jonlantirishning badiiy uslubi o‘z ifodasini topadi. Unda jonli va jonsizlik, shaxs va shaxssizlik hamda aniqlik va mavhumlik muhim rol o‘ynaydi. Bunda personifikator sifatidagi ad‘yektivlar odatda gapning ifodalovchi markazi emas, ular kengaytirilgan shaxslashtiruvchi kontekstlarda komponent sifatida kiritiladi. Biroq, sifatdosh-tuslovchi (ad‘yektiv-personifikator) kiritilganda yuzaga keladigan taqdimot effekti yorqinroq va murakkabroq shaklga egaligi aytib o‘tiladi. Sifatlarning ham semantik rejada, ham kontekstda qo‘llanish jihatida o‘rganilishini belgilab beruvchi asosiy xususiyati bu so‘z turkumining semantik jihatdan bog‘liqligidir. Sifat ot bilan o‘zaro aloqada bo‘lgan narsa yoki hodisalarni belgilash sohasiga kiradi. Bu xususiyat sifatning haddan tashqari semantik harakatchanligi asosida yotadi. U turli semantikadagi otlarga osongina moslashadi, bu esa ma‘noning turli xil o‘zgarishiga imkon beradi. Sifatlovchili (ad‘yektiv) birikmalarda aniqlanayotgan otning denotativ ma‘nosi tarkibini tashkil etgan xususiyatlarning butun doirasini ifodalash mumkin. Denotatning yadro belgisini belgilashdan yadro bilan bog‘langan belgilarni belgilashga ko‘proq bilvosita o‘tib, sifatdoshning keng qo‘llanish doirasini tashkil etuvchi hosila (metaforik) ma‘nolarni osongina oladi.

Kalit so‘zlar: personifikatsiya, denotat, referent, hosila, ma‘no. kategoriya, metafora, jonlantirish, atributiv.

ABSTRACT

Article discusses metaphor, which is a part of trope derivation. One type of metaphor is the expression of personification in literature, the role-play, that is, the artistic style of animation. In it, animate and inanimate, personality and

impersonality, as well as clarity and abstraction, play an important role. In this case, adjectives as personifiers are usually not the center of expression of the sentence, they are included as a component in extended personalizing contexts. However, the presentation effects when an participle-agreement is more vivid and complex. The main feature that determines the study of adjectives in terms of their use both in the semantic plan and in the context is the semantic dependence of this word group. Adjective falls into the realm of defining somethings or events that interacts with a noun. This feature expresses the extreme semantic mobility of adjective. It easily adapts with different semantic nouns, which give a chance for a different change of meaning. Adjective compounds can express the whole range of features which make up the denotative meaning of noun. The sign of the denotation is more indirectly moved to the designation of the signs associated with the nucleus, easily deriving the derivative (metaphorical) meanings that make up the broad scope of the adjective.

Keywords: *personification, denotation, referent, derivation, meaning, category, metaphor, animation, attribute.*

АННОТАЦИЯ

В данной статье рассматривается входящая в состав тропической деривации метафора. Свое выражение находит выражение, передача образов то есть стиль олицетворения являющегося одним из видов метафоры олицетворения. В ней важную роль играют одушевленность и неодушевленность, личность и безличность, а также ясность и абстракция. Здесь адъективы как персонификаторы вводятся не как выразительная часть центра предложения, а в обширные олицетворяющие контексты в качестве компонента. Однако говорится, что, когда вводится причастие-предлог (адъектив-персонификатор), образующийся эффект презентации обретает более яркую и сложную форму. Основным признаком, определяющим изучение прилагательных с точки зрения их употребления как в семантическом плане, так и в контексте, является семантическая зависимость данной группы слов. Прилагательное относится к разряду того, что находится в связи с существительным или определяет явления. Это свойство лежит на основе чрезмерной семантической активности прилагательного. Оно с легкостью приспосабливается к существительным различной семантики, что приводит к искажению его смысла. В прилагательных(адъективных) сочетаниях можно определить весь круг составляющих свойств денотативного значения определяемого существительного. Переходя более опосредованно от

денотата к денотату и от знаменателя к знаменателю, связанному с ядром, прилагательное легко приобретает производные (метафорические) значения, составляющие широкий спектр приложений.

Ключевые слова: персонификация, денотат, референт, производная, значение, категория, метафора, олицетворение, атрибут.

KIRISH

Jonlantirishda otning leksik-grammatik kategoriyalari (konkret/mavhum, jonli/jonsiz, shaxs/shaxssiz va boshqalar) faol hisoblanadi. Koreys tilshunosi aytganidek “Grammatik kategoriya - bu shakllarning paradigmatic korrelyatsiyasi orqali amalga oshiriladigan umumlashtirilgan ma'noni ifodalash tizimi” dir [1, 5.]. Jonlantirishning tug'ilishi, shuningdek, metafora va shunga mos ravishda so'zlarning denotativ munosabatining o'zgarishi otning bir leksik-grammatik kategoriyadan boshqasiga o'tishiga olib keladi.

Shu bilan birga, otning alohida leksik va grammatik kategoriyalari (jonlilik/jonsizlik, konkretlik/mavhumlik) o'rtasida ham, ularning har biri doirasida ham (masalan, “animatsiya” turkumi doirasida) turli munosabatlar o'rnatiladi.

Turlanishning grammatik kategoriyasida shaxsni tashkil etuvchi va shakllantiruvchi otning grammatik kategoriyalari orasida turning (jins) grammatik kategoriyasi alohida o'rin tutadi.

ADABIYOT TAHLILI VA METODLAR

O.S.Axmanova “Lingvistik atamalar lug‘ati”da turni (jins) kelishilgan so'zlarning ma'lum shakllari bilan birlasha olishida namoyon bo'ladigan otlarning leksik va grammatik kategoriyasi sifatida belgilaydi. U quyidagi tushunchalarni aniqlaydi: grammatik tur (jins) – jinsi formal kategoriya sifatida, ya'ni tegishli lingvistik ma'nodagi jins; gender yagona (tabiiy jins) - lingvistik toifa sifatida jins o'rtasidagi taxminiy muvofiqlik va jins bo'yicha tabiiy (biologik) bo'linish. Jonsiz jins (jonsiz jins) kontseptsiyasining qiziqarli ta'rifi - bu erkak va ayol jinsiga qarama-qarshi bo'lgan, jonli jinsga birlashtirilgan neytral jinsdir. O'rta bo'lmagan jins (neyter bo'lmagan jins) - o'rta jinsga qarama-qarshi bo'lgan kategorik shakllar to'plami. Gender umumiyliigi (umumiy jins) - ham erkak, ham ayol kishi bilan bog'lanishi mumkin bo'lgan turning(jins) qiymati. Jonli gender (jonli jins) - erkak va ayol turlanishlar birga olinganda [2, 608].

V.G.Admoni tur (jins) kategoriyasini dastlabki semantik sintaktik jins kategoriyasining bir qismi bo'lgan boshlang'ich formal morfologik kategoriya sifatida belgilaydi. Boshlang'ich formal kategoriya har doim umumlashgan ma'noga

ega bo‘lsa, boshlang‘ich semantik kategoriyalar o‘z ma‘nosini katta yoki kichikroq grammatik shakllar majmuasida amalga oshiradi [3, 300].

V.V.Vinogradov otlarni uch rasmiy sinfga (erkak, o‘rta, ayollik) ajratar ekan, otlarning mutlaq ko‘pchiligi shaxs va hayvonlarni belgilamaydigan jins shakli motivsiz, ma‘nosiz ko‘rinishini ta‘kidlaydi. Bu atamalarning grammatik sinflarga bo‘linishida o‘sha tafakkurga xos bo‘lgan narsa, shaxs va voqelik hodisalarining tasnifi o‘z aksini topgan qadimgi davrlar yodgorligi, boshqa til tizimi qoldig‘i bo‘lib tuyuladi. “Bizda tirik mavjudotlarning tabiiy sohasi haqidagi g‘oyalarimizga bog‘liq bo‘lgan haqiqiy umumiy g‘oyalar ongi yashaydi. Bu real g‘oyalar grammatik g‘oyalarga ta‘sir qiladi, ularni o‘ziga bo‘ysundiradi [4, 3-58].

NATIJARLAR

Personifikator sifatidagi ad‘yektivlar odatda gapning ifodalovchi markazi emas, ular kengaytirilgan shaxslashtiruvchi kontekstlarda komponent sifatida kiritiladi. Biroq, sifatdosh-tuslovchi (ad‘yektiv-personifikator) kiritilganda yuzaga keladigan taqdimot effekti yorqinroq va murakkabroq shaklga ega.

Koreys tilida jonlantirish, ya‘ni, personifikatsiya hodisasiga misol keltirib o‘tamiz. Kvon Chong Sengning “Kuchuk axlati” asaridan bir parcha:

흙덩이는 능글맞게 히죽 웃으며 되묻습니다. 강아지 똥은 할 말이 없어졌습니다. 목 안에 가득 치미는 분통을 억지로 참습니다. 그러다가

“똥이면 어떠니? 어떠니?”

발락이라도 하듯 소리를 지릅니다. 강아지 똥은 눈물을 글썽입니다. 흙덩이는 여전히 빙글거리며,

“똥 중에서도 제일 더러운 개똥이야.”

하고는 용용 죽겠지 하듯이 쳐다봅니다. 강아지 똥은 기어이 울음보를 터뜨립니다. 울면서 쫓알거렸습니다.

“그럼 너는 뭐야? 울통불통하고, 시커멓고, 마치 도둑놈같이”

이번에는 흙덩이는 말문이 막혔습니다. 멀똥해진 채 강아지 똥이 쫓알거리며 우는 것을 보고만 있었습니다. 강아지 똥은 실컷 울다가 골목길 담벽에 노랗게 햇빛이 비칠 때야 겨우 울음을 그쳤습니다. 코를 훌쩍거리며 뽀로통해서 탄 데를 보고 있었습니다. 흙덩이가 나직이

“강아지 똥아.”

하고 부릅니다. 무척 부드럽고 정답습니다. 하지만, 강아지 똥은 못 들은 체 대답을 않습니다. 대답은커녕 더욱 얄밟다 싶습니다.

“내가 잘못했어. 정말 도둑놈만큼 나빴어.

Kesak ayyorona kulib qayta so‘rabdi. Kuchuk axlati bir so‘z deya olmabdi. Bo‘g‘ziga tiqilib kelayotgan jahlini ichiga yutibdi. Shunda

“Axlat bo‘lsam nima qipti? Nima qipti?”

Quturgandek baqiribdi. Kuchuk axlatining ko‘ziga jiqqa yosh to‘libdi. Kesak esa boyagiday miyig‘ida kulib,

“Axlatlar ichida ham eng kir axlatsan.”

deb ustidan kulgandek qarab turardi. Kuchuk axlati oxir-oqibatda ho‘ngrab yuboribdi. Yig‘lab turib gapiribdi.

“Unda sen kimsan? Qiyshiq-miyshiq, qop-qora, xuddi o‘g‘rilardek....”

Bu safar kesak g‘ing deya olmabdi. Kuchuk axlatining yig‘lab javrashiga angrayib qarab qolibdi. Kuchuk axlati to‘yib yig‘lagan cha shu bilan tor ko‘chaning devorlariga quyoshning sariq zarrin nurlari tekkandagina yig‘idan to‘xtabdi. Burnini torta torta xafa bo‘lgan holda boshqa joyga qarabdi. Kesak sekingina

“Hoy axlat.”

deb chariqibdi. Juda ham muloyim va do‘stona sevgi yog‘ilib turardi bu ohangda. Lekin, kuchuk axlati o‘zini eshitmaganga solib javob bermabdi. Javob berish u yoqda tursin, uni juda ham yomon ko‘rib ketibdi.

MUHOKAMA

Yuqorida keltirilgan matndan parchada ko‘rganimizdek, noodatiy jonlantirish juda chiroyli tarzda ifodalangan. Kesak va axlatning dialogidan hayotdagi ikki insonning, biri kerakmas, ikkinchisi esa juda mayda va arzimas kishi hisoblangan odamlarning obrazi shakllantirilgan. Ularda xuddi insonlardek ko‘z, quloq, og‘iz va hislar mavjud. Ular insonlardek his qiladi, oy‘laydi, gapiradi, xafa bo‘ladi hattoki yig‘laydi ham. Bunda sifat va fe‘lning qo‘llanilishi juda muhim ahamiyatga molik hisoblanadi.

Demak, sifatlarning ham semantik rejada, ham kontekstda qo‘llanish jihatida o‘rganilishini belgilab beruvchi asosiy xususiyati bu so‘z turkumining semantik jihatdan bog‘liqligidir. Sifat ot bilan o‘zaro aloqada bo‘lgan narsa yoki hodisalarni belgilash sohasiga kiradi. Bu xususiyat sifatning haddan tashqari semantik harakatchanligi asosida yotadi. U turli semantikadagi otlarga osongina moslashadi, bu esa ma‘noning turli xil o‘zgarishiga imkon beradi. Sifatlovchili (ad‘yektiv) birikmalarda aniqlanayotgan otning denotativ ma‘nosi tarkibini tashkil etgan xususiyatlarning butun doirasini ifodalash mumkin. Denotativning yadro belgisini belgilashdan yadro bilan bog‘langan belgilarni belgilashga ko‘proq bilvosita o‘tib, sifatlovchining keng qo‘llanish doirasini tashkil etuvchi hosila (metaforik) ma‘nolarni osongina oladi. Gapning bu qismi semantikasining xarakterli xususiyatlari - atributiv

konstruktsiyalar a'zolariga xos bo'lgan yaqin semantik aloqa va sifatlar semantikasida pragmatik jihatning o'ziga xosligi - ikkinchi darajali nominatsiya jarayonda sifatlar ma'nosini metaforalashtirishni ko'rib chiqishda alohida ahamiyatga ega bo'ladi.

Shaxsning tashqi belgilari va ichki xususiyatlarini ob'ektlar, hodisalar, o'simlik va hayvonot dunyosiga o'tkazish, shuningdek ularga antropomorfik xususiyatlarni berish kabi ta'rifimizga asoslanib, koreys tilshunosi 류지현 tomonidan taklif qilingan tasnifga ko'ra bizni bevosita yoki bilvosita ko'rsatkichlar bo'lgan otlar qiziqtiradi.

Hikoyadagi personajlar insonlardek xatolarini tan ola biladilar, kechirim so'raydi. Ya'ni, kichik, arzimas va keraksiz odam bo'lsa ham uni xudo yaratgan, uni tahqirlashga, xo'rlashga hech kimni haqqi yo'q. Keraksiz bo'lib qolgan paytgacha u kimgadir kerak bo'lgan, kimningdir hojatini chiqargan, koriga yaranan. Hikoyaning mazmuni shundaki kerakli paytida e'zozlanib, kerak bo'lmay qolganida uni chiqitga tashlab yuborish yoki tahqirlash kerak emas. Chunki har bandani xudo yaratgan va uning bu dunyoda qiladigan vazifasi bor. Hikoyadan anglashiladigan asl ma'no mana shundan iboratdir.

XULOSA

Personifikatsiyani murakkab ko'p bosqichli jarayon sifatida tushunishimizga asoslanib, shaxsning eng yuqori darajasida – “haqiqiy jonlantirish” da, model sifatdashning - shaxsning bevosita idrok qilinadigan yoki to'g'ridan-to'g'ri idrok etilmagan jonsiz yoki mavhum ot atributining kombinatsiyasi tufayli amalga oshiriladi. Bunday birikmada nafaqat umumiy xususiyatlar mavjud emas, balki, aftidan, sifatlarning odatiy ot doirasiga tortilishi ularning assotsiativ imkoniyatlarini yomonlashtiradi. Ammo ba'zida mualliflar yorqin tasvirlarni yaratishga muvaffaq bo'lishadi. Insonning o'z xususiyatlarini (fikrlash va gapirish qobiliyatini) hayvonlar va o'simliklarga o'tkazish istagi va umuman, jonli mavjudotlarning xususiyatlarini jonsizlarga bog'lash istagini aqliy rivojlanishdan oldingi davrda tabiat bilan aloqani his qilish va atrofdagi dunyo hodisalarini tushuntirish osonroq bo'lganligi bilan izohlash mumkin. O'zini o'rganish orqali inson dunyoning tuzilishini tushunishga harakat qilib kelgan.

REFERENCES

- 1, 크리스 베틀스 지음, 최민우 옮김, “루이스 웨인의 웃기고 슬프고 이상한 고양이들”, 저공비행, 2012, p.5.
2. Ахманова О.С. Словарь лингвистических терминов. – М.: Сов. Энциклопедия, 1969. – 608 с.

3. Арнольд И.В. Стилистика современного английского языка: Учеб. Пособие. – М.: Просвещение, 1990. –300 с.
4. Виноградов В.В. Основные типы лексических значений. // Вопросы языкознания. – М., 1953. - №5. С. 3-29.
5. 남 승 호. 한국어 이동 동사의 의미구조와 논항교체,- 서울대학교 Nam, Seungho. (2003). Lexical semantic Structures and argument alternations of movement verbs in Korean. Language Research 39(1), 111-145
6. 백봉자. 위국어로서의 한국어 문법 사전. 서울.: 하우. 2006. -395 b
7. <http://www.koreaaward.com>
8. <http://krdict.korean.go.kr/rus>
9. Тухтасинов, И. М. (2011). Лингвокультурологические и гендерные особенности сложных слов в художественном тексте (на материале английского и узбекского языков). Автореф. дисс.... канд. филол. наук. Ташкент: УзГУМЯ.
10. Тухтасинов, И., & Хакимов, М. (2021). Modern views on the problem of distance and traditional methods of teaching italian language in higher education institutions. Society and Innovation, 2(2), 111-117.
11. Tukhtasinov, I. M., Muminov, O. M., & Khamidov, A. A. (2017). The days gone by. Novel by Abdulla Qodiriy. Toshkent.
12. Tukhtasinov, I. M. (2018). The structure of the phenomenon of equivalence and its importance for translation strategies. In Modern Romano-German linguistics and new pedagogical technologies in language teaching, Materials of the Republican scientific-practical conference, Samarkand.
13. Тухтасинов, И. М. (2018). Развитие профессиональной компетенции на основе эквивалентности при подготовке переводчиков.
14. Tukhtasinov, I. M. (2017). Discursive approach in the training of translators. In Mat. International scientific and creative forum" Youth in science and culture of the XXI century". Chelyabinsk: Chelyabinsk State Institute of Culture (pp. 229-231).
15. Тухтасинов, И. М. (2012). Национально-культурная специфика сложных слов, выражающих внешность и характер человека, в английском и узбекском языках. Вестник Челябинского государственного университета, (2 (256)), 122-125.
16. Тухтасинов, И., & Хакимов, М. (2021). Современные взгляды на проблему дистанционного и традиционного методов обучения итальянскому языку в высших учебных заведениях. Общество и инновации, 2(2), 111-117.

17. Тухтасинов, И. М. (2017). Дискурсивный подход в обучении переводчиков. In Научные школы. Молодежь в науке и культуре XXI в. (pp. 229-231).
18. Тухтасинов, И. (2021). Таржимоннинг касбий компетенцияси ва фаолият функциялари. Иностранная филология: язык, литература, образование, (3 (80)), 5-10.
19. Тухтасинов, И. (2021). Особенности формирования учебного процесса в системе высшего образования Узбекистана в условиях Covid-19. Иностранная филология: язык, литература, образование, (1 (78)), 11-18.
20. Тухтасинов, И. М. (2020). Лингвокультурологический аспект обучения переводческой компетенции. In Язык и культура (pp. 226-231).
21. Тухтасинов, И. М. (2020). Лингвокультурологический аспект обучения переводческой компетенции. In Язык и культура (pp. 226-231).
22. Tuhtasinov, Ihom and Lutfilloeva, Fahriniso, The Japanese Language Teaching Technologies Based on Computer Simulation Models (September 10, 2019). Available at SSRN: <https://ssrn.com/abstract=3458780>
23. Тухтасинов, И. М. (2019). ВНЕДРЕНИЕ ИННОВАЦИЙ В ПРОЦЕСС ОБУЧЕНИЯ ТЕОРИИ И ПРАКТИКИ ПЕРЕВОДА. In Россия-Узбекистан. Международные образовательные и социально-культурные технологии: векторы развития (pp. 111-113).
24. Тухтасинов, И. М. (2018). Методика выявления эквивалентности слов разносистемных языков в процессе перевода. Бюллетень науки и практики, 4(7), 539-544.
25. Тухтасинов, И. (2017). Таржимада маданий мослашиш ҳолатлари. Иностранная филология: язык, литература, образование, 2(2 (63)), 5-9.
26. Тухтасинов, И. (2017). Жамият тарихининг ҳозирги босқичида таржимонлар тайёрлашнинг асосий муаммолари. Иностранная филология: язык, литература, образование, 2(4 (65)), 20-24.
27. Тухтасинов, И. (2016). Таржима назариясида тиллараро эквивалентлик тушунчаси ва унинг тадқиқи. Иностранная филология: язык, литература, образование, 1(4), 26-30.
28. Тухтасинов, И. М. СОЦИОЛИНГВИСТИЧЕСКАЯ СПЕЦИФИКА В ОБУЧЕНИИ ИНОСТРАННЫМ ЯЗЫКАМ. ББК 74.48 Р 76, 314.
29. Djurayev, D. M. Linguo-cultural Approach to Teaching Foreign Languages. International Journal on Integrated Education, 3(12), 240-241.
30. Джураев, Д. (2021). ХИТОЙ ТИЛИНИ ЎҚИТИШДА ТАЛАБА ХАРАКТЕРИНИНГ АҲАМИЯТИ. АКТУАЛЬНОЕ В ФИЛОЛОГИИ, 1(1).

31. Джураев, Д. (2020). Талабаларни таълим жараёнида хитой тилига ўқитиш самарадорлигини ошириш методлари. Иностранная филология: язык, литература, образование, (1 (74)), 124-127.
32. Джураев, Д. М. (2017). ИСТОРИЧЕСКИЕ ПРЕДПОСЫЛКИ ОБУЧЕНИЯ И МЕТОДЫ ПРЕПОДАВАНИЯ КИТАЙСКОГО ЯЗЫКА В УЗБЕКИСТАНЕ. In Актуальные вопросы преподавания китайского и других восточных языков в XXI в. (pp. 84-88).
33. Dilshod, D. (2012). 乌兹别克斯坦与中国重要节日的对比 (Master's thesis, 新疆大学).
34. Турниязов, Н. К. (1985). Принципы формирования синтаксической структуры сложноподчинённого предложения в узбекском языке/-Ташкент. Укитувчи.-1985,-с22.
35. Turniyozov, N., & Rahimov, A. (2006). O'zbek Tili [M].
36. Турниёзов, Н. (1998). Назарий грамматикадан очерклар. Самарқанд: СамДЧТИ, 998, 48.
37. Сулейманова, Н. М., & Турниязов, Н. К. (2018). О ФОРМИРОВАНИИ СТРУКТУРНОЙ СХЕМЫ В ЧЕЛОВЕЧЕСКОМ СОЗНАНИИ. In Научные школы. Молодёжь в науке и культуре XXI века (pp. 39-42).
38. Турниёзов, Н. (2016). Синтагматик муносабат ва дискурсе шаклланишига доир баъзи қайдлар. Иностранная филология: язык, литература, образование, 1(4), 10-13.